INTERNATIONAL SCIENTIFIC JOURNAL OF
Contemporary Pedagogical and Philological Research
2026 / No. 1(2)

SCIENCE CONNECTS PEOPLE

2019-2026-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA ONLAYN TA’LIMNING TENDENSIYALARI VA AHAMIYATI

Allaberdiyeva Nafosat G‘ayrat qizi

Maxammaliyeva Ruxshona Saxadin qizi

SamDChTI Narpay xorijiy tillar fakulteti, 2-bosqich talabalari

Suyunov Boburjon Shokir o‘g‘li

SamDChTI Narpay xorijiy tillar fakulteti, Umumiy fanlar kafedrasi mudiri

Annotatsiya: Ushbu maqolada 2019-yildan 2026-yilgacha bo‘lgan davr oralig‘ida O‘zbekistonda virtual ta’limning tendensiyalari va ahamiyati (afzalliklari va kamchiliklari) ilmiy jihatdan tahlil qilingan. Maqolada pandemiya davrida masofaviy ta’limning rivojlanishi, turli platformalar orqali ta’lim berish tajribalari va bu tizimning ta’lim oluvchilarga ta’siri yoritiladi. Shuningdek O‘zbekistonda onlayn ta’limning holati keng tahlil qilinadi. Raqamli ta’lim o‘zining bir qancha ahamiyatlariga (foydali va muammoli jihatlar) ega: gadjetlarga moslashuvchanlik, vaqt va mablag’ tejash, individual o‘rganish imkoniyati, joy tanlash erkinligi; internetga qaramlik, jonli muloqotning cheklanishi, texnik nosozliklar. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra 2020-2021-yillarda O‘zbekistondagi OTMlarda tahsil olib kelayotgan talabalarning 571,5 ming nafari onlayn platformada o‘qishni boshlashgan va shu bilan birga 100 ming dan ortiq elektron o‘quv dasturlari va ma’ruzalar ishlab chiqilib joylashtirilgan.

Kalit so‘zlar: tendensiya, onlayn ta’lim, COVID-19, EdTech.

XXI asrda raqamli texnologiyalar va axborot-kommunikatsiya vositalarining jadal taraqqiy etishi ta’lim jarayonining mazmuni hamda tashkil etilishiga sezilarli o‘zgarishlar olib kelmoqda .Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida dunyo bo‘ylab minglar ta’lim oluvchilar va ta’lim beruvchilar an’anaviy ta’lim shaklidan onlayn ta’lim shakliga o‘tishga majbur bo‘ldi. Ushbu holat masovafiy ta’limning samaradorligi imkoniyatlari va mavjud muammolarni real sharoitda o‘rganish uchun muhim tajriba bo‘lib xizmat qildi. Bugungi kunda virtual ta’lim tarafdorlari soni tezlik bilan ortib

bormoqda. Masofaviy ta’lim turli ta’lim sohasidagi vakilarni bir nuqtaga birlashtirdi va ajoyib imkoniyatlar hamda qulayliklar eshigini ochdi. Xususan, raqamlashtirilgan ta’lim erish jarayoni foydalanuvchilar uchun qulay va arzon bo‘lib ularga o‘zlari uchun afzal bo‘lgan vaqt va joyda o‘rganish imkoni beradi. Shu bilan bir qatorda bu ta’lim shaklida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi bevosita aloqaning, ya’ni o‘zaro yuzma-yuz muloqotning bo‘lmasligi ta’lim jarayonini doimiy kuzatib borish hamda o‘quvchilarning baholash tizimida bir qancha qiyinchiliklar olib keladi.

So‘nggi yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal o‘sib ketishi ta’lim sohasida tub o‘zgarishlarning yuzaga kelishiga sabab bo‘lmoqda. Xususan, raqamli texnologiyalarning ta’lim jarayonida keng foydalanilishi natijasida bilim berish va o‘zlashtirishning an’anaviy usullari bilan bir qatorda zamonaviy ta’lim shakllari ham rivojlanmoqda. Shunday ta’lim shakllaridan biri onlayn ta’lim bo‘lib, u geografik masofa va vaqt bilan bog‘liq cheklovlarni kamaytirish, ta’lim olish imkoniyatlarini oshirish hamda o‘quv jarayonini moslashuvchan tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, COVID-19 pandemiyasi davrida o‘quv muassasalari faoliyatini davom ettirish zarurati raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanishni keskin jadallashtirdi. Natijada ko‘plab mamlakatlarda ushbu ta’lim shaklidan keng foydalanala boshlandi.

Onlayn ta’lim — ta’lim beruvchi va oluvchi jismonan bir joyda bo‘lishi shart bo‘lmagan holda, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda elektron ta’lim resurslari kabi onlayn vositasilar orqali bilim berish shaklidir. Mazkur jarayonda bilimlarni yetkazish, o‘zlashtirish, mustahkamlash va baholash ishlari internet texnologiyalari orqali amalga oshiriladi: videokonfererensiyalar, elektron o‘quv platformalari, onlayn testlar kabi raqamli vositalar. Bunda ta’lim olishning samaradorligi nafaqat texnologik imkoniyatlarga, balki o‘quv materiallarining sifati, o‘quvchining mas’uliyati hamda o‘qituvchining o‘quvchi bilan ishlash ko‘nikmalariga ham bog‘liq bo‘ladi.

2019-2026-yillarda virtual ta’limning o‘sish tendensiyalari.



– **2019-2026- yillar (Majburiy ôtish davri)-** Pandemiya sababli ta’lim tizimi favqulodda onlayn rejimga o‘tdi va “Teleta’lim” loyihasi va oddiy messenjerlar (Telegram) orqali muloqot ustunlik qildi.

– **2021-2023- yillar (Tizimlashish va integratsiya)** – Coursera kabi yetakchi platformalar bilan memorandumlar imzolandi hamda millionlab yoshlarga bepul IT-kurslar taqdim etildi.

– **2023-2024- yillar (Masofaviy ôquv yili)** - oliy ta’limda masofaviy (onlayn) ta’lim shakli qonuniy joriy etildi hamda rasmiy diplom berish boshlandi.

– **2024- 2026-yillarda (Tijoriy ôsish va EdTech) –** Mahalliy EdTech bozori mustaqil biznes yo‘nalishi bo‘lib shakllandi shu bilan birga,bozor hajmi kamida 126 mlrd so‘mga yetdi (o‘tgan yilga nisbatan 94% o‘sish).

– **2025-2026-yillarda (Mobile first)** – Internet foydalanuvchilarining 90% dan ortig‘i tarmoqqa smartfonlar orqali kiradi. E-Learning platformalari, mobil ilovalar va Telegram ekotizimiga moslashtirilishi natijasida sun’iy intellekt va adaptativ ta’lim elementlari kirib kelmoqda.

Masofaviy ta’lim bozori umumiy 30 mlrd so‘mdan 126 mlrd so‘mgacha, ya’ni taxminan 4,2 barobar o‘sgan. 2019–2023 yillarda o‘sish barqaror bo‘lgan (30 → 50 → 65), ammo 2023–2024 dan 2024–2026 ga o‘tishda (65 → 126, +94%) eng katta sakrash

bo‘ldi: EdTech mustaqil tijorat yo‘nalishiga aylandi. Bu vaqt mobaynida onlayn ta’limning sifati ham yaxshilanib bordi. Bunda dastlabki majburiy onlayn rejimdan boshqa axborot texnologiyalari platformalari bilan integratsiyalashuv jarayoniga o‘tildi, virtual ta’lim qonuniylashtirildi va sun’iy intellekt vositalari keng rivojlantirildi.

Masofaviy ta’limning muhim afzalliklaridan biri uning makon va vaqt jihatidan moslashuvchanligidir. An’anaviy ta’limda o‘quvchilar va talabalar belgilangan vaqtda muayyan ta’lim muassasasida ishtirok etishlari talab qilinsa, raqamlashtirilgan ta’limda onlayn shaklda taqdim etilgan materiallardan o‘zlariga qulay vaqtda foydalanish imkoniyati mavjud. Jumladan, videodarslar, elektron darsliklar, taqdimotlar, virtual seminarlar, onlayn testlar va interaktiv topshiriqlar ta’lim oluvchilarning darsliklarni mustaqil o‘zlashtirishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, videomuloqot, elektron pochta, muhokama forumlari va messenjerlar orqali pedagog hamda ta’lim oluvchilar o‘rtasida muntazam aloqa o‘rnatiladi. Bundan tashqari, onlayn ta’lim jarayonida ovquvchilar turli raqamli texnologiyalar, elektron platformalar va maxsus dasturiy vositalardan foydalanish orqali o‘zlarining amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Bu esa ularning raqamli savodxonligini oshirish, axborotni izlash, saralash, va uni tahlil qilish hamda undan samarali foydalanish tajribalarini shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, adaptiv ta’lim (adaptive learning) tizimlari kabi sun’iy intellektga asoslangan ta’lim vositalari har bir foydalanuvchining bilim darajasi, o‘zlashtirish kovrsatkichi, erishgan natijalari va mavjud qiyinchiliklarini hisobga olgan holda, unga moslashtirilgan o‘quv materiallari hamda amaliy topshiriqlarni tavsiya etadi. Bunday tizimlar talabaning o‘quv faoliyatini tahlil qilib, bilimlardagi bo‘shliqlarni aniqlaydi va ularni bartaraf etish uchun maxsus mashqlar va maslahatlarni taklif etadi.

Onlayn ta’lim qator afzalliklarga ega bo‘lishiga qaramay, uni tashkil etish va amalga oshirish jarayonida muayyan muammolar ham yuzaga keladi. Birinchidan, texnik qurilmalarga bog‘liqlik onlayn ta’limning asosiy kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Ta’lim jarayonining uzluksiz tashkil etilishi barqaror internet aloqasi,

kompyuter, planshet yoki smartfon kabi gadjetlarning mavjudligini talab qiladi. Ayniqsa, internet sifati past bo‘lgan hududlarda yashovchi yoki zamonaviy qurilmalardan foydalanish imkoniyati cheklangan shaxslar darslarni o‘z vaqtida o‘zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishlari mumkin. Bundan tashqari, o‘zini o‘zi boshqarish va vaqtni to‘g‘ri taqsimlash bilan bog‘liq muommolar ham onlayn ta’lim samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Mazkur ta’lim shakli ta’lim oluvchidan yuqori darajadagi mas’uliyat, mustaqillik va intizomni talab etadi. Uy sharoitida ta’lim olish jarayonida turli chalg‘ituvchi omillar, jumladan, oilaviy majburiyatlar, maishiy yumushlar va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish talabalarning diqqatini o‘quv faoliyatiga to‘liq yo‘naltirishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. An’anaviy ta’lim muassasalarida mavjud bo‘lgan tartib-intizom muhiti, bevosita pedagogik nazorat va jamoaviy o‘quv faoliyati onlayn ta’limda har doim ham yetarli darajada shakllanmaydi.

Xulosa qilib aytganda, onlayn ta’lim dunyo miqyosida keng sur’atlar bilan rivojlanmoqda va ko‘plab ta’lim oluvchilar tomonidan eng qulay tanlov sifatida e’tirof etilmoqda. Masofaviy ta’limning texnik infratuzilmalarning kamchiliklari, muhitdagi chalg‘ituvchi omillar hamda mustaqil ta’lim olishdagi mas’uliyat og‘irligi kabi bir qancha kamchiliklari bo‘lishiga qaramasdan, u zamonaviy ta’lim tizimida keng imkoniyatlar yaratib kelmoqda va jadal sur’atlar bilan rivojlanib bormoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. https://inlibrary.uz/index.php/iqro/article/view/73121/74803
2. https://share.google/XA0MLL4dubHzH4BCw
3. https://mobidrive.com/sharelink/p/3CDptApdX6tkSTjIxV5p9v6qnujp9EHZ7vswDx9UjfPf
4. https://share.google/ehqrZFmuqATUkCcqg
5. https://share.google/Sq8ukz1zcmfbV2aK2

6. https://www.researchgate.net/publication/358929574_Onlayn_ta’limni_boshqarish_tizimlarining_rivojlanish_tendensiyalari

7. https://share.google/IB4TmxEFS4S9EreV3